

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**MKRTCHYAN RIPSIME VACHAGANOVNA**

**JERDANAK KONI GIL SLANETSI ASOSIDA SHAMOTLI  
OLOVBARDOSHLAR VA CHINNI ISHLAB CHIQRISHNING  
TEXNOLOGIK ASOSLARI**

**02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора технических наук (DSc)**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Technical Science (DSc)**

**Mkrtchyan Ripsime Vachaganovna**

Jerdanak koni gil slanetsi asosida shamotli olovbardoshlar  
va chinni ishlab chiqarishning texnologik asoslari ..... 3

**Мкртчян Рипсима Вачагановна**

Технологические основы производства шамотных огнеупоров  
и фарфора на основе глинистого сланца месторождения Джерданак ..... 25

**Mkrtchyan Ripsime Vachaganovna**

Technological basics of production of fireclace refractories and  
porcelain based on clay shale of the Jerdanak deposit ..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works ..... 51**

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**MKRTCHYAN RIPSIME VACHAGANOVNA**

**JERDANAK KONI GIL SLANETSI ASOSIDA SHAMOTLI  
OLOVBARDOSHLAR VA CHINNI MATERIALLAR ISHLAB  
CHIQRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI**

**02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestsatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/T780 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tkti.uz](http://www.tkti.uz)) hamda «Ziyonet» axborot ta'limi portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Aripova Mastura Xikmatovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Babaxanova Zebo Abdulayevna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Gulamova Dilbara Djurayevna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Talipov Nigmatulla Xamidovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**I.Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy Kengashining «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 y. soat «\_\_\_» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'chasi, 32-uy. Tel.: (99871) 244-79-20, faks: (99871) 244-79-17, e-mail: [tkti\\_info@edu.uz](mailto:tkti_info@edu.uz), Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (100011, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, A. Navoi ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.M. Turobjonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash Raisi, t.f.d., akademik

**X.E. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash kotibi, t.f.d., professor

**Z.A. Babaxanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raislik qiluvchi, t.f.d., professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda keramika sanoatining rivojlanish tendentsiyasi olovbardoshlar va farfor buyumlar ishlab chiqarishning energiyatejamkor texnologiyalarini yaratish bilan bog'liq. Qora va rangli metallurgiya, energetika, kimyo va mashinasozlik sanoatlarida asosiy texnologik agregatlarning samarali ishlashini ta'minlaydigan ishlab chiqarilayotgan o'tga chidamli materiallar asosining 70 %ni shamotli olovbardoshlar tashkil etadi. tashkil etadi. Ekologik va estetik hisoblanuvchi an'anaviy farfor buyumlar xalq xujaligida keng foydalaniladi. Shu bilan birga mavjud va arzon noan'anaviy xomashyo asosida ommabop o'tga chidamli chinni buyumlar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Jahon shamotli olovbardoshlar va chinni buyumlar ishlab chiqarishning energiyatejamkor texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, kuydirilmagan gilli xomashyoning fazaviy tarkibini aniqlash, olovbardoshlarning tarkibini optimallashtirish, gil slanetslardan o'itga chidamli buyumlar olishda energiyani tejash imkonini beruvchi texnologiyalarni ishlab chiqilish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda moddiy resurslardan samarali foydalanish orqali keramika sanoatni rivojlantirish, jumladan noan'anaviy xomashyolar asosida ommabop o'tga chidamli chinni buyumlar olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish, sifati va hajmini oshirish uchun keng ko'lamdagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «muhim sanoat mahsulotlari bozor konyunkturasini o'rganish asosida ichki bozorning tegishli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan takliflar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish»<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahalliy xomashyodan ommabop mahsulotlar olish, minerallari kaolinit va muskovit turlari bo'lgan,  $K_2O - Al_2O_3 - SiO_2$  uch komponentli Jerdanak koni gilli slanetsidan olovbardoshlar ishlab chiqarish uchun foydalanish, chinni buyumlari assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 21 apreldagi PF-2916-son «2017 - 2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son «Uy-joy qurilishi va qurilish sohasini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 1 maydagi PQ-4302-son «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharxi<sup>2</sup>.** Aluminosilikat keramika buyumlar olish texnologiyasini ishlab chiqish, ularning tarkibi va xosslarini aniqlash borasidagi tadqiqotlar jahonning bir qator ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlarida olib borilmoqda, shu jumladan, Cambridge University (Angliya), University of Michigan (AQSh), California Institute of Technology (AQSh), Limoges University (Fransiya), Pennsylvania State University (AQSh), University of Modena (Italiya), Institute of Materials Science and Technology (Avstriya), Instituto de Ciencia de Materiales de Sevilla (Ispaniya), Xefey texnologiya universiteti (Xitoy), Koreya universiteti (Seul), Surtin University (Avstraliya), Universidad Politécnic de Cataluña (Ispaniya), University of Bremen (Germaniya), McGiU University (Kanada), Milliy Tayvan universiteti (Tayvan), Kalkutta universiteti (Hindiston), Central South University (Xitoy), Moskva davlat universiteti, Belarus davlat texnologiya universiteti, Sibir federal universiteti, Irkutsk davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti va boshqalar olib borilmoqda.

Gil slanetsning fazaviy tarkibini aniqlash bo‘yicha kompleks tadqiqotlar, kaolinitni mullitga transformatsiyasi, mutillitning tuzilishidagi o‘ziga hoslikni tatqiq qilish, pirofillitsaqlovchi tarkiblardan olovbardosh materiallar sifatida foydalanish, o‘tga chidamli buyumlar olishda energiya sarfni qisqartirish imkonini beruvchi kam bosqichli texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: gil slanetslarning yangi tarkibini mullitga transformatsiyalash modellashtirilgan (Keramika tadqiqot instituti, Yevropa kulolchilik markazi, Fransiya, Sharqiy Xitoy fan va texnologiya universiteti, Xitoy, Barselona universiteti, Tayvan milliy universiteti, Tayvan, Sibir federal universiteti, Irkutsk davlat texnika universiteti, Rossiya), mullitning o‘ziga xos strukturaviy tuzilishi aniqlangan (Qattiq jismlar instituti, Rossiya, University of Bremen, Germaniya) dastlabki xomashyo sifatida pirofillitdan foydalanib olovbardosh materiallar ishlab chiqarish texnologiyalari jadallashtirilgan (University of Michigan, California Institute of Technology, AQSh, Xefey texnologiya universiteti, Xitoy, Limoges University, Fransiya, Institute of Materials Science and Technology, Avstriya, Universidad Politécnic de Cataluña, Ispaniya, McGiU University, Kanada), texnogen chiqindalarni kimyoviy mineralogik va materialo-genetik sinflash, ko‘mirli issiqlik elektr stantsiyalari chiqindisidan shamotli olovbardoshlar ishlab chiqarish samaradorligi oshirilgan (Tuva Davlat universiteti, DNS geologiya instituti, Rossiya, Tashkent kimyo-texnologiya instituti, O‘zbekistan), gilli slanetsdan shamotli olovbardoshlar va chinni buyumlar olish uslublari ishlab chiqilgan (Kitayskiy universitet nauk o Zemle, University of Modena, Italiya, Koreya kulolchilik muhandisligi va texnologiyasi instituti, Cambridge University, Angliya, Pennsylvania State University, AQSh, Instituto de Ciencia de Materiales de Sevilla, Ispaniya,

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: [www.czu.cz](http://www.czu.cz), [www.iitb.ac.in](http://www.iitb.ac.in), [www.unipage.net](http://www.unipage.net), [www.cnr.it](http://www.cnr.it), [www.put.poznan.pl](http://www.put.poznan.pl), [www.polandstudy.com](http://www.polandstudy.com), [www.cextremelab.edu.rs](http://www.cextremelab.edu.rs), [www.upm.es](http://www.upm.es), [www.umd.edu.pk](http://www.umd.edu.pk), [www.hotcourses.ru](http://www.hotcourses.ru), [www.gatech.edu](http://www.gatech.edu), [www.unist.ac.kr](http://www.unist.ac.kr), [www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz), [www.tkti.uz](http://www.tkti.uz), [www.urmon.uz](http://www.urmon.uz) va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Belorus Davlat texnologik universiteti, Tashkent kimyo-texnologiya instituti, O'zbekistan).

Dunyoda kaolinit, kvarts hamda asosi illit va seritsitdan iborat muskovit turlaridan iborat gilsimon slanetslarni tarkibi va tuzilishini aniqlash, qayta ishlash, gilli slanetsdan shamotli olovbardoshlar va chinni buyumlar ishlab chiqarish texnologiyalarini jadallashtirish, uning samaradorligini oshirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: gil slanetsning fazaviy tarkibini va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash; alyumosilikatli shamot olovbardoshlar tarkibi va xususiyatlarining fizik, kolloid va kimyoviy xossalariga bog'liqligini nazariyasini asoslash; kimyoviy-mineralogik va materialo-genetik texnogen chiqindilar asosida chinni buyumlar olishning yangi usullarini va samarali texnologiyalarini ishlab chiqish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xom ashyoni o'rganish, kompozitsiyalarni ishlab chiqish, aluminosilikat keramika tuzilishi va xususiyatlarini yaxshilash muammolari bilan dunyoga mashhur olimlar shug'ullangan Grimm R., Hinckley K., Brindley G., Kingery W., Wilhelm E., Schneider H., Fischer R.X., Fielitz P., Giese R.F., Glass I.O., Roy R., Borchardt G., Dobojs J., Bonnet J.P., Lecomte G.L., Blanchart P., Ali M.A., Ahmed H.M.A., Ikuma Y., Chakraborty A.K., Wang X., Chen Y.F., Lee S., Kim Y.J., Qiao X., Lee W.E., Hsiao Y.-H., Ho T.-Y., Garzon E., Gonzalez I., Ginzberg A.S., Budnikov P.P., Augustinik A.I., Poluboyarinov D.N., Strellov K.K., Kainarskiy I.S., Moroz I.X., Balkevich V.L., Bobkova N. M., Pavlov V.F., Guzman I.Ya., Lukin E.S., Ya. Ordanyan S.S., Perepeletsin V.A., Rouchka G., Vutnau X., Inamura Ya., Maslennikova G.N., Ismatov A.A., Aripova M.X. va yuqoridagi muammolarni hal etishda katta hissa qo'shgan boshqa olimlar.

Ular tomonidan alyumosilikat shamotli olovbardoshlar va forfor buyumlar ishlab chiqarishning nazariy asoslari yaratilgan, gil slanetsning fazaviy tarkibi aniqlangan, ularning tarkibi va xususiyatlarining tuzilishiga bog'liqligi asoslangan, chinni buyumlar olishning yangi usullari va texnologiyalari takomillashtirilgan.

Shu bilan birga, aluminosilikat keramika ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasini kengaytirish, noan'anaviy xomashyo - gil slanetslarni shamotli o'tga chidamli materiallar va chinni buyumlar ishlab chiqarishga yo'naltirish, kaolinit, kvarts hamda asosi illit va seritsitdan iborat muskovit turlaridan iborat gilli slanetsdan olovbardoshlar ishlab chiqarish, chinni buyumlari assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq OT-ID/11-5-10 «Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Jerdanak konidan kvarsit va slanetslarni qayta ishlashning sanoat texnologiyasini joriy etish» (2010-2012 yy.), A3-20170920226 «O'tga chidamli g'isht ishlab chiqarish uchun xomashyoni mahalliyashtirish» (2018-2020 yy.) va I-OT-2021-502 «Jerdanak konining gil slanetslari asosida shamotli olovbardoshlar ishlab chiqarishning energiya tejovchi texnologiyasini joriy etish» (2021-2022 yy.) mavzularidagi innovatsion va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tarkibiy asosini mullit tashkil etuvchi Jerdanak konining gil slanetslaridan shamotli olovbardoshlar va chinni olish texnologiyasi asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

slanetsning kimyoviy, fazaviy tarkibi, tuzilishi va texnik xususiyatlarini o'rganish;

gil slanetsni kuydirish jarayonida sodir bo'ladigan fizik-kimyoviy jarayonlarni o'rganish;

gil slanets asosida shamotli olovbardoshlar ishlab chiqarish kompozitsiyalari va texnologiyasini ishlab chiqish;

gil slanets asosida chinni buyumlar ishlab chiqarish kompozitsiyalari va texnologiyasini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan shamotli olovbardoshlarning tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish;

ishlab chiqilgan chinni tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish;

shamotli olovbardoshlar ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etish;

chinni buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Jerdanak koni gil slanets va uning asosidagi aluminosilikat keramika olingan.

**Tadqiqotning predmeti** aluminosilikat keramikaning fazaviy tarkibi, tuzilishi va xossalari shakllantirishning fizik-kimyoviy jarayonlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida rentgen-fluorensensiya spektroskopiyasi, rentgen nurlari difraksiyasi, termogravimetrik, elektron mikroskopik tahlillar, minerologik tarkib va tuzilishni aniqlashning boshqa fizik-kimyoviy usullardan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ilk bora 600-1400 °S haroratlar chegarasida termik ishlov berish bilan Jerdanak konining gil slanetslarining fazaviy tarkibidagi o'zgarishlar aniqlanib, 1100-1200 °C oralig'ida asosiy kristall faza - mullitning shakllanishi isbotlangan asoslangan;

ilk bora mexanik faollashtirib maydalangan gilli slanetsning qovushqoqlikka ega bo'lishi isbotlanib, pishish kinetikasi asoslangan;

5 - 15 %  $Al_2O_3$  qo'shib, 1300 - 1400 °S oralig'ida kuydirilgan slanets tarkibida mullit miqdori oshishi, mullit sintezida kaolinit va seritsitning tarkibiy parchalanishidan ajralib chiqadigan kremniy oksidi ta'sirida kristobalit fazasining yo'qolishi aniqlangan;

1350 °C olov haroratida olingan, 1,3 kislotalik koeffitsientiga ega qattiq chinning maqbul tarkibi, xossalari va strukturaviy xususiyatlari aniqlangan;

chini massasiga magniy oksidining kiritilishi bilan kordiyerit fazasining paydo bo'lishi, oqlik va issiqlikka chidamlilikning oshishi, qisqarishi, mustahkamligi va zichligining pasayishi aniqlanib, strukturada igna shaklidagi mullit kristallari hosil bo'lishi isbotlangan;

chinni sopolak bilan yaxshi birikadigan, nuqsonlardan holi sirtning maqbul tarkibi va xossalari aniqlangan;

Jerdanak gil slanetsining fizik-texnik va texnologik xususiyatlar va kimyoviy tarkibi asoslanib, shamotli olovbardosh va chinni buyumlar olishning energiya tejamkor texnologiyalari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

past haroratda kuydirilgan shamotdan foydalanib, gil slanetsidan o'tga chidamli mahsulotlar olishning maqbul parametrlari ishlab chiqilgan;

shamotli olovbardosh materiallarga qo'yiladigan talablarga mos material ishlab chiqilgan;

fizik-kimyoviy xossalari chinni buyumlarga qo'yiladigan me'yoriy talablarga mos keladigan, plastik va quyma usullaridan foydalangan holda chinni buyumlar ishlab chiqarishning tarkibi va energiya tejovchi texnologiyasi ishlab chiqilgan;

mahalliy noan'anaviy xomashyo - Jerdanak konidan olinadigan gil slanets asosida shamotli olovga chidamli va chinni buyumlar ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqilgan energiya tejovchi texnologiyalar joriy etildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot o'tkazilgan tajribalarning katta hajmi, zamonaviy tadqiqot usullari majmuasidan foydalangan holda olingan natijalarning bir-biriga mos kelishi, shuningdek, tadqiqot natijalarini amalga oshirish bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mexanik faollashtirib maydalangan gilli slanetsning qovushqoqlikka ega bo'lishi, mullit faza hosil qilib transformatsiyalanish jarayoni kinetikasi, shamotli olovbardoshlar va farfor tarkibini optimallashtirishning ilmiy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, shamotga chidamli materiallar va chinni buyumlar olishda mavjud arzon noan'anaviy xomashyo - Jerdanak koni gil slanetsdan foydalanish, fizik-kimyoviy xossalari me'yorlarga mos, magniy oksidining kiritilishi bilan oqlik va issiqlikka chidamliligi oshirilgan, qisqarishi, mustahkamligi va zichligi pasaytirilgan, plastik va quyma usullarida chinni buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Shamotli olovbardoshlar va chinni ishlab chiqarishning texnologik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'tga chidamli materiallari omixtasi olish usuliga O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligining ixtiroga patenti olingan (IAP 06594). Natijada shamotli olovbardoshlar ishlab chiqarish imkonini bergan;

Jerdanak koni gil slanetsi asosidagi shamotli o'tga chidamli materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi "SURXON-KERAMIKS" OAJda ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalar uyushmasining 2024 yil 3-iyuldagi № 02/15-1338 son ma'lumotnomasi). Natijada GOST 390-2018 shartlari va ShA markasi talablariga mos o'tga chidamli shamotli g'isht ishlab chiqarish imkonini bergan.

Jerdanak koni gil slanets asosida chinni buyumlar tarkibi Toshkent chinni zavodida ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalar uyushmasining 2024 yil 3-iyuldagi № 02/15-1331 son ma'lumotnomasi). Natijada 66 % gil slanetsi, 24 % Jeroy koni kvarts qumi, 5 % chinni chiqindisi va 5 % Ingichka koni dala shpati tarkibli chinni buyumlar ishlab chiqarish imkonini bergan;

Ingichka koni dala shpati, G'uzor koni dolomiti va Jerdanak koni gil slanetsi asosida yaltiroq sirt qoplama ishlab chiqarish texnologiyasi Toshkent chinni zavodida ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalar uyushmasining 2024 yil 3-iyuldagi № 02/15-1331 son ma'lumotnomasi).

Natijada shaffof, nuqsonlarsiz, yaltiroq sirt qoplama ishlab chiqarish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarini aprotatsiyasi.** Ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-texnikaviy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 36 ta ilmiy ishlar, jumladan, 3 ta patent, 16 ta maqola, shundan 4 tasi O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 6 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 6 ta ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 205 bet.

## DISSERTASIYANING ASOSIY QISMI

Dissertatsiyaning «**O'tga chidamli va chinni ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasining hozirgi holati**» deb nomlangan **birinchi bobida** mahalliy va xorijiy adabiyotlar ma'lumotlariga asoslanib, muqobil xomashyo manbalaridan foydalanish, xususan, o'rganish uchun zarur tadqiqotlar o'tkazish zarurligi to'g'risida dalillar keltirilgan. Jerdanak konining gil slanetslari, ular asosida o'tga chidamli shamot va chinni buyumlari uchun tarkiblar va ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha tahlillar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Xomashyo, o'tga chidamli shamot va chinni o'rganish uchun asbob-uskunalar va usullar**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** tabiiy xomashyo va hosil bo'lgan keramik materiallarni o'rganish jarayonida qo'llaniladigan asbob-uskunalar va fizik-kimyoviy usullari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


«**O'tga chidamli shamot va chinni materiallar ishlab chiqarish uchun noan'anaviy xomashyolar**» nomli **uchinchi bobda** Jerdanak konining gil slanetsi va

Baynaksoy koni kvarts-pirofillit xomashyosi tarkibi, xossalari, ularga yuqori haroratli kuydirishning ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan.

Jerdanak konining turli qismlaridan olingan gil slanetslarning 12 ta namunasini kimyoviy tahlil qilishdan olingan o'rtacha natija quyidagicha, og'irligi%: 53,89 SiO<sub>2</sub>; 0,787 TiO<sub>2</sub>; 35,26 Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; 0,514 Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; 0,181 CaO; 4,53 K<sub>2</sub>O; 0,168 ZrO<sub>2</sub>; 0,020 V<sub>2</sub>O<sub>5</sub>; 0,021 Rb<sub>2</sub>O; 0,009 Cr<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; q.y.4,621.

Jerdanak konining slanets tarkibidagi alyuminiy oksidining o'rtacha miqdori boyitilgan Angren birlamchi kaolinidagi miqdoridan yuqoriligi aniqlandi.

Slanetsdan foydalangan holda aluminosilikat keramika ishlab chiqarish uchun K<sub>2</sub>O-Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-SiO<sub>2</sub> uch komponentli tizimning holat diagrammasi asos bo'lishi mumkin. Barcha tarkiblar mullit hosil bo'lish maydoniga to'g'ri keladi (1-rasm). Bu maydonning tepasida har xil turdagi chinni




**1-rasm. K<sub>2</sub>O-Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-SiO<sub>2</sub> uchlik tizimining fazaviy diagrammasidagi slanets tarkibi hududi.**

kompozitsiyalari mavjud bo'lib, bu tegishli aralashtirish bilan kerakli xususiyatlarga ega chinni olish mumkinligini ko'rsatadi.

Slanetsning asosiy minerallari kaolinit, kvarts va muskovit turlari – illit, seritsit hisoblanadi. Ba'zida galluazit, kam miqdorda sillimanit uchraydi. Kondagi xomashyoning asosiy turi kaolinit saqlovchi hisoblanadi.


Gilli slanetsning fazaviy tarkibining 600-1400 °C oralig'ida o'zgarishi o'rganildi. 1400 °C da kuydirilgan tabiiy slanetsning diffraksiya sxemasi 2-rasmda ko'rsatilgan. Kaolinitning asosiy refleksi 800 °C da kuydirilgandan keyin yo'qoladi. Suvsizlanish va degidrosillanish jarayonlari natijasida muskovitning 800 °C gacha kuygandan keyin tekisliklararo masofalari oshadi. Muskovitning tuzilishi 1200 °C da butunlay o'zgaradi.



S – slyuda, K – kaolinit, Kv – kvarts, M – mullit, Kr – kristobalit

2-rasm. 1400 °C (b) da yondirilgan tabiiy gil slanetsning diffraksiya shakllari (a).


1100 °C haroratida asosiy mullit kristallari paydo bo'ladi. 1200 °C da pishirilgan namunalarda galoning ko'payishi shishasimon eritmaning ko'payishini ko'rsatadi, bu mullitning sintezi va ikkilamchi bo'lib qayta kristallanishi uchun sharoit yaratadi. Bu jarayon 1300 °C da pishirilgan namunalardagi galoning pasayishi bilan birga keladi. 1400 °C da kuydirilgan tabiiy gil slanetsning mikro tuzilishi 3-rasmda keltirilgan. Shuni aytish mumkinki, gil slanetsning tabiiy holatidagi zich, bir xil strukturasi kuydirishdan keyin ko'p sonli mullit kristallari kirib boradi.



3-rasm. Tabiiy (a) va 1400 °C (b) da kuydirilgan gil slanets namunasining elektron mikroskopik tasvirlari.

4-rasmda slanetsning termogrammasi keltirilgan. Unga ko‘ra barcha namunalarning termogrammalari bir xil shaklga ega.

Taxminan 800 °C gacha bo‘lgan haroratda jarayonlar massa yo‘qolishi bilan birga sodir bo‘ladi. Organik fazaning mavjudligi taxminan 300 °C haroratda endoeffekt bilan tasdiqlanadi. 500-800 °C oralig‘ida kengaytirilgan endoeffekt seritsit, kaolinit va galluazitning suvsizlanish jarayonlarini, shuningdek, kvartsning  $\alpha \rightarrow \beta$  o‘tishini aks ettiradi. Barcha namunalar uchun 990 °C dagi ekzoeffekt, ehtimol, mullit kristallanish markazlarining shakllanishi bilan bog‘liq. 1000 °C dan yuqori kengaytirilgan ekzotermik ta‘sir mullit va kristobalit kristallarining sintezi va tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.





**4-rasm. Gil slanets termogrammasi**

tijalari 5-rasmda keltirilgan.

Barcha slanets namunalari yuqori haroratda kuydirishda mullit, kristobalit va qisman kvarts hosil qiladi. Tekisliklararo masofalardagi ozgina o‘zgarishlarga qaramay, minerallarning o‘xshashligiga shubxa tug‘ilmaydi. Biroq, bu moddalarning miqdori sezilarli darajada farq qiladi. tarkibida kaolinit ko‘p bo‘lgan namunalarni kuydirish paytida mullet ko‘proq hosil bo‘ladi, aksincha minimal miqdorda illit bo‘lgan namunalarni kuydirishdan keyin sezilarli darajada kamroq hosil bo‘ladi.

Plastik massasidan qoliplangan namunalarda slanetsni pishish kinetikasini o‘rganish na-




**5-rasm. Kuydirish haroratiga qarab qisqarish (1), suvyutuvchanlik (2), solishtirma (3) va haqiqiy zichlik (4) ning o‘zgarishi.**

Taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, gil slanetsning qisqarishi 21% ga, suv yutuvchanligi esa 0% ga 1300 °C haroratda, solishtirma zichlik 2,5 g/sm<sup>3</sup>, haqiqiy zichlik esa 2,7 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qiladi.

1350 °C da pishirilgan namunalarning maksimal egilishga mustahkamligi 70 MPa, 20-600 °C harorat oralig'ida CHTKK 4,8·10<sup>-6</sup> K<sup>-1</sup> dan oshmadi. olovbardoshligi 1700-1730 °C gacha.

1300 va 1400 °C haroratlarda kuydirilgan gil slanetsning fazaviy tarkibiga 5-20% miqdoridagi texnik glinozyom qo'shimchalarining ta'siri o'rganildi.

Alyuminiy oksidining massa tarkibiga kiritilishi korund hosil bo'lishidan tashqari, 1300 °C haroratda kuydirish paytida faza tarkibini o'zgartirmaydi (6-rasmga qarang). 1400 °C haroratda mullit miqdori keskin oshadi va kvarts miqdori kamayadi, kristobalit hosil bo'lmaydi va korund reflekslari kamayadi.



**6-rasm. 1300 °C (a) va 1400 °C (b) da yondirilgan 5% Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> qo'shilgan slanetsning rentgen nurlanishining diffraksiyasi.**  
**M – mullit, Q – kvarts, Co – korund**

Qo'shilgan Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> miqdorining ko'payishi bilan mullit miqdori 1300 °C da pishirilgandan. 1400 °C da pishirilgandan keyin mullit miqdori sezilarli darajada oshadi kvarts va korund miqdorining bir vaqtning bilan kamaydi.


1300 °C da kuydirilgandan so'ng kvarts tarkibining pasayishi kaolinit va muskovitning tarkibiy parchalanishi paytida ajralib chiqadigan sezilarli darajada katta miqdordagi kvartsning mullit sintezi jarayonida ishtirok etishini ko'rsatadi. Haroratning 1400 °C ga ko'tarilishi bu jarayonni kuchaytiradi, buning natijasida Kvarts miqdori keskin kamayadi.

Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> qo'shimchasi kiritilgandan keyin galoning pasayishiga qarab, hosil bo'lgan eritmaning miqdori ham kamayadi. Korund fazasining ko'rinishi materialning o'tga chidamliligini oshirishi mumkin. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, alyuminiy oksidi qo'shimchalari materialning fazaviy tarkibiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Agar Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> qo'shilmagan namunalarda asosiy fazalar mullit, kvarts va kristobalit bo'lsa, unda qo'shimchalarning kiritilishi kristobalitning shakllanishiga to'sqinlik qiladi va keramikaning o'tga chidamliligi va issiqlikka chidamliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kvarts tarkibini sezilarli darajada kamaytiradi. Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ni 10-15% qo'shilishi optimal qiymat deb hisoblanishi mumkin. Korund fazasining ko'rinishi va mullit tarkibining oshishi materialning o'tga chidamliligini oshirishga yordam berdi. Jinsning o'tga chidamliligi 1750 °C ga oshdi.

Boynoksoy koni kvarts-pirofillit xomashyosini o'rganish natijasi nazariy jihatdan kuydirilmagan shamot sifatida foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. Kvars-pirofillit

xomashyosining o'rtacha namunasining kimyoviy tarkibi quyidagicha, og'irligi%: 71,19 SiO<sub>2</sub>; 27,02 Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; 0,10 Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; 0,10 CaO; 0,03 MgO; 0,12 Na<sub>2</sub>O; 0,06 K<sub>2</sub>O; 1,4 p.p. 1400 °C da tog' jinslarining qisqarishi 7% dan ko'p emas, suvyutuvchanligi 0,2% ni tashkil qiladi, olovbardoshligi – 1650 °C.


1400 °C da kuydirilgan tabiiy va kvarts-pirofillit jinsining diffraksiya sxemasi 7-rasmda keltirilgan.



**7-rasm. Pirofillit saqlovchi tog' jinslarining diffraksiyalari, tabiiy (a), 1400 °C (b) da kuydirilgan.**

Boynoqsoy konining kvarts-pirofillit jinsiga issiqlik ta'siri natijasida 600 °C dan yuqori haroratlarda pirofillit fazasining parchalanishi boshlanadi. Pirofillitning parchalanishi 800 haroratda paydo bo'ladigan metapirofillit hosil bo'lishi bilan kechadi va 1100 °C gacha saqlanadi. 1200 °C da kuydirilgan namunada mullit paydo bo'ladi va kvartsning reflekslari saqlanib qoladi. 1300 °C da kuydirilgandan so'ng, kristobalit kristallari paydo bo'ladi va mullit miqdori oshadi. Ushbu namunalarda, kvarts miqdori kristobalit miqdoridan ko'pligi ko'rinadi. Bu nisbat 1400 °C da pishirilgan namunalarda o'zgaradi.

Skanerli elektron mikroskop yordamida kvarts-pirofillit jinsining tabiiy namunasi va turli haroratlarda kuydirilgan namunalarning mikro tuzilishi o'rganildi. Olingan tabiiy namunaning va 1400 °C da kuydirilgan namunalarning tasvirlari 8-rasmda keltirilgan.



**8-rasm. Kvars-pirofillit jinsining elektron mikroskopik tasviri, tabiiy (a) va 1400 °C (b) da kuydirilgandan keyin.**

Tabiiy namunaning nozik dispers tuzilishi zich struktura bilan ifodalanadi, unda kvarts kristallari va qatlamlı pirofillitning to'planishi sezilarli darajada ekanligi

ko‘rinadi. 1400 °C da pishirilgan namunada mullit kristallari bilan kirishgan bo‘lib, ularning o‘lchamlari 1 mikrondan oshmaydi.

Shunday qilib, Boynoqsoy konining kvarts-pirofillit jinsini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bu jinsning xususiyatlari, ya’ni yuqori o‘tga chidamliligi, past qisqarish va suv yutuvchanlikka egaligi va 1400 °C da kuydirilgandan keyin mullit fazasining shakllanishi tufayli bu xomashyo o‘tga chidamli materiallar ishlab chiqarishda kuydirilmagan shamot sifatida ishlatilishi mumkin.

**«Belgilangan xususiyatlarga ega o‘tga chidamli mahsulotlarni olishning texnologik parametrlarini ishlab chiqish»** deb nomlangan to‘rtinchi bobda ko‘rsatilgan xususiyatlarga ega o‘tga chidamli mahsulotlarni olishning texnologik parametrlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Shamotlar olish uchun Jerdanak konining gil slanetslari toshsimon bo‘lganligi sababli briketlashning hojati yo‘q. Kondan kelayotgan slanets jag‘li maydalagichda maydalanadi, magnit separator orqali o‘tkaziladi, keyin yuviladi va ajratiladi. Xomashyoning 6-8 mmlilik fraksiyasi jo‘vali maydalagichga, so‘ngra 2-0,5 mm fraksiyani ajratish uchun elakka beriladi. Kattaroq fraksiya maydalash uchun jo‘vali maydalagichga qaytariladi. Mayda fraksiya <0,5 mm sharli tegirmonda mayin maydalash uchun yuboriladi. 2-0,5 mm bo‘lgan ajratilgan fraksiya barabanli aylanadigan pechda kuydiriladi. Pishgan xomashyo tebranma elakda katta va kichik fraksiyalarga ajratiladi, 2–0,5 va <0,5 mm lik fraksiyalar dozator bunkerlariga yuboriladi. Shamotning ma’lum nisbatidagi bunday fraksiyon tarkibi o‘tga chidamli mahsulotlar olish uchun belgilangan o‘lchamlaridan minimal og‘ishini ta’minlaydi.

Shamotni kuydirish uchun 1200 °C harorat yetarli ekanligi aniqlandi va kerakli g‘ovaklikka erishish uchun aylanma pechda 3,5 soat davomida olib borildi.

Bunda yirik fraksiyaning optimal tanlangan miqdori 30% bo‘lib, bu yuqori mustahkamlikka erishishda mahsulotning belgilangan o‘lchamlaridan minimal og‘ishini ta’minlaydi.

Shamotli o‘tga chidamli materiallarni ishlab chiqarishning asosiy texnologik sxemasi ishlab chiqilgan. Massani tayyorlash barcha komponentlarni aralashtirishdan iborat bo‘lib, bunda asosiy va bog‘lovchi materiallarning alohida fraksiyalarini bir xilda taqsimlanishi, ularni bir xilda namlanishi va biroz zichlashtirish orqali tashish vaqtida noqulaylikni bartaraf etadi.

Aralashtir-gichga dozatorlardan shamot fraksiyalarining hisoblangan miqdori 30:70 da beriladi, ular bug‘ bilan ishlanadi (2 minut), shundan so‘ng bog‘lovchi gil va suvning hisoblangan miqdori kiritiladi. Massani aralashtirish 15 daqiqa davom etadi. 8-10% suvni o‘z ichiga olgan tayyor massa mahsulotlarni shakllash uchun yuboriladi.

Texnologik aralashmani presslash HLDS-315 preslarida amalga oshiriladi. Ushbu pressdagi maksimal bosim 40 N/mm<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Namunalar o‘lchamlari 230×114×65 mm bo‘lgan to‘rtburchak shakldagi mahsulot ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan qoliplarda qoliplangan.

Yarim tayyor mahsulotni tashish uchun zarur bo‘lgan mustahkamlikka ega bo‘lishi uchun 30 N/mm<sup>2</sup> bosimda shakllash yetarli hisoblanadi.

Kuydirish paytida sodir bo‘ladigan jarayonlar shamot va bog‘lovchi gil uchun shamotning kuyish haroratiga qadar bir oz farq qiladi va namlikni yo‘qotish va biriktiruvchining kristalli tarkibiy qismlarining tuzilishini parchalash jarayonlari bilan

belgilanadi. Bundan tashqari, shamot va bog‘lovchi tarkibining bir xilligi tufayli qisqarish va fazaviy o‘zgarishlar bilan birga bir xil hodisalar yuzaga keladi.

150-400 °C oralig‘ida qoliplash namligi chiqariladi va bog‘lovchi gildagi uglerod aralashmalari oksidlanadi. Ushbu davrdagi kuydirish tezligi o‘choqning tuzilishi, xomashyoning massasi va namligiga bog‘liq. 400-800 °C oralig‘ida gil bog‘lovchida kaolinit va muskovitning parchalanishi va strukturaviy kimyoviy bog‘langan suvning chiqishi bilan kichik hajmli qisqarish (2% dan ko‘p bo‘lmagan) bilan birga sodir bo‘ladi. Haroratning 900 °C dan yuqoriga oshishi suyuq fazaning paydo bo‘lishiga olib keladi va mullit hosil bo‘lish jarayoni boshlanadi. Ushbu oraliqda haroratning oshirish tezligi asosan, bog‘lovchi va shamot miqdorlarini nisbatiga bog‘liq. 1300-1400 °C oralig‘ida haroratni bir xillashtirish uchun harorat oshirish tezligi pasaytiriladi.

Shamot mahsulotlarini sovutish jarayoni material hajmining kamayishi bilan birga kechadi, shuning uchun 800-1000 °C gacha, sovutish 25-45 °C/soat tezlikda amalga oshiriladi. Ushbu haroratlardan pastroqda, pechlarda devor tomonidan to‘plangan katta miqdordagi issiqlik mavjudligi sababli sovutish tezligi biroz sekinlashadi.

O‘lchami 65,0×3,3×2,7 m bo‘lgan tunnel pechida o‘tga chidamli g‘ishtlarni kuydirish optimallashtirildi. Pechga 39 ta aravachalar kiradi. Tarkibida 70% shamotli bo‘lgan ShA sinfiga mos keladigan o‘tga chidamli mahsulotlarni olish imkonini beruvchi shamotli mahsulotlarni kuydirish grafigi 1-jadvalda keltirilgan.


Kvars-pirofillit jinsidan shamot ishlab chiqarishning texnologik sxemasi gil slanetslaridan shamot ishlab chiqarish sxemasi bilan bir xil bo‘lib, undan fraksiyalangan xomashyoni kuydirish istisno qilinadi. Mahsulotning tarkibi bilan bog‘liq holda ishlab chiqilgan kuydirish rejimi belgilangan o‘lchamlardan minimal og‘ishlar bilan kerakli tuzilish va xususiyatlarga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta‘minladi.

Shamotdan tayyorlangan mahsulotlar namunalarining tuzilishi 9-rasmda keltirilgan. Taqdim etilgan fotosuratlarda materiallarning butun tuzilishiga o‘lchamlari 2 mikronga teng bo‘lgan mullit va kristobalitning prizmatik kristallaridan iboratligini ko‘rsatadi.


## 1-jadval

### Tunnel pechida o‘tga chidamli mahsulotlarni kuydirish grafigi

Temperatura oralig‘i, °C	Temperaturani oshirish va pasaytirish tezligi, °C/s	Kuydirish davomiyligi, s
Quritish +Kuydirish		
100–400	35	8
400–1100	70	14
1100–1300	30	20
1300–1400	50	3
Jami		45
Sovutish		
1400–700	125	6
700–400	60	10
400–75	34	11
Jami		27
Hammasi		72



a



b

9-rasm. Shamotli olovbardoshning mikro tuzilishi: a - 70% shamot (kuygan gil slanets) 30% bog‘lovchi (gil slanets); b - 70% shamot (kvars-pirofillit), 30% bog‘lovchi (gil slanets).

Ishlab chiqilgan texnologiya yordamida olingan o‘tga chidamli shamot mahsulotlarining xususiyatlari 2-jadvalda keltirilgan. Berilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, olingan mahsulotlar GOST 390–2018 ning ShA va ShB markali shamotli o‘tga chidamli g‘ishtlarini ishlab chiqarish bo‘yicha barcha talablariga javob beradi (1 – gil slanets asosidagi shamot, 2 – kvarts-pirofillit jinsi asosidagi shamot).

Olingan mahsulotlarning yuqori mustahkamligi va past g‘ovakliligi ishlatiladigan xomashyo va texnologiyaning xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin. Shamotning pastroq kuydirish harorati gil bog‘lovchi va shamotning izchil qisqarishini ta’minlaydi – kuyish paytida shamot va gil bog‘lovchining qisqarishi parallel ravishda sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, shamot donachalari va gil zarralari orasidagi bo‘shliqlar kamayadi va natijada mahsulotlarning mustahkamligi va zichligi oshadi.

2-jadval

**Olovbardosh g‘ishtlarni fizik-kimyoviy xossalari**

Ko‘rsatkich nomlanishi	Namunalar		Ko‘rsatkich qiymati GOST 390-2018	
	1	2	ShA	ShB
Massa ulushi, %:				
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> , dan kam emas	32	28	30	28
SiO <sub>2</sub>	-	-	-	-
Olovbardoshlik, °C, dan past emas	1700	1650	1690	1650
Yumshash harorati, °C, dan past emas	1350	1350	1300	-
Ochiq g‘ovaklilik, %, dan ortiq emas	13	15	24	24
Siqilishga bardoshlik, H/mm <sup>2</sup> , dan kam emas	65	30	20	15
1400°C haroratda qizdirilganda o‘lchamlarning o‘zgarishi, %, dan ortiq emas	0,2	-	-	-

«Jerdanak konining gil slanetslari asosida chinni buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish» deb nomlangan V bobida chinni sopolagi, sirlari tarkibini, ularning strukturaviy xususiyatlari va mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Ishlab chiqilgan chinni omixtasining tarkibi quyidagicha, mass. %: 66 slanets; 24 kvarts; 5 dala shpati; 5 chinni sinig'i.

Tarkibiy komponentlar sifatida Jeroy konidan boyitilgan kvars qumi va Ingichka konidan dala shpati ishlatilgan, ularning kimyoviy tarkibi 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval**

**Dala shpatining va kvars qumining kimyoviy tarkibi**

Jinsning nomlanishi	Oksidlarning massa ulushi, %								
	SiO <sub>2</sub>	TiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	MgO	K <sub>2</sub> O	Na <sub>2</sub> O	ZrO <sub>2</sub>
Dala shpati (Ingichka)	65,92	0,016	18,52	0,074	0,576	0,145	14,6	-	0,149
Kvars qumi (Jeroy)	99,25	-	0,25	0,04	0,13	0,04	0,06	0,23	-

Ishlab chiqilgan chinnining kimyoviy tarkibi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadvalda keltirilgan kimyoviy tarkib asosida hisoblangan chinni uchun kislotalik koeffitsienti 1,3 ga teng. Shunday qilib, chinni qattiq va maishiy chinni ta'rifiga kiradi.


**4-jadval**

**Chinni kimyoviy tarkibi**

Oksidlarning massa ulushi, %								
SiO <sub>2</sub>	TiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	MgO	K <sub>2</sub> O	Na <sub>2</sub> O	ZrO <sub>2</sub>
67,019	0,461	27,179	0,253	0,17	0,082	4,641	0,055	0,14

2% magniy oksidining kiritilishi ishlab chiqilgan chinnining ba'zi xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. MgO talk orqali kiritilgan.


